



---

## **DEN BRAUN ROMANLARIDA TRAGIK OBRAZLAR O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

Amonova Dilshoda Azamat qizi  
Buxoro Davlat Universiteti, 1-bosqich doktoranti

### **Kirish**

Zamonaviy jahon adabiyotida fojiali qahramonlar tahlili adabiy jarayonning muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ayniqsa, detektiv va sarguzasht romanlarida tragik xarakterlarning paydo bo‘lishi zamonaviy insoniyatning muammolari bilan bevosita bog‘liq. Shu jihatdan amerikalik yozuvchi Den Braun ijodi diqqatga sazovordir. Uning *The Da Vinci Code*, *Angels & Demons*, *Inferno* kabi romanlarida tragik obrazlar insoniyat taqdiri, e’tiqod, ilm-fan va axloqiy tanlovlar bilan bog‘liq fojialarni o‘zida aks ettiradi. Ularning o‘ziga xosligi – nafaqat psixologik murakkabligida, balki zamonaviy global muammolar bilan yuzlashuvida namoyon bo‘ladi.

### **Asosiy qism**

Tragediya va tragik obrazlar haqida Aristotel, V.G. Belinskiy, A.N. Veselovskiy, M.M. Baxtin kabi adabiyotshunoslar fikr bildirgan. Aristotel “*Poetika*” asarida tragik obrazni fazilatli, ammo katta xatoga yo‘l qo‘ygan shaxs deb ataydi. Belinskiy bunday obrazlarni ijtimoiy-tarixiy ziddiyatlarning mahsuli sifatida ko‘radi. Baxtin esa romandagi tragizmni qahramonning ichki ziddiyatlari bilan bog‘laydi.

Shuningdek, Manya Lempert Tomas Hardining tragik obrazlar haqidagi qarashlarini tahlil qilib, ularni zamonaviy kontekstda qayta ko‘rib chiqadi. Uning fikricha, “tragik obrazlar nafaqat shaxsiy xatolar, balki tashqi ijtimoiy va madaniy omillar ta’sirida shakllanadi.”

“Hardining tragik obrazlari tashqi omillar ta’sirida halokatga uchraydi, bu esa ularni zamonaviy tragediya bilan bog‘laydi.”<sup>1</sup>

Ozod Sharafiddinov o‘zining “*Ijodni anglash baxti*” asarida o‘zbek adabiyotidagi obrazlar, jumladan, tragik obrazlarning shakllanishi va ularning badiiy-estetik

---

<sup>1</sup> Manya Lempert, “*Hardy’s Theory of Tragic Character*”. Cambridge University Press, 2020



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

ahamiyatini tahlil qiladi. U “tragik obrazlarni insoniy ruhiyat va ijtimoiy muhit bilan bog‘laydi.”<sup>2</sup>

Dilmurod Quronov “Adabiyot nazariyasi asoslari” darsligida badiiy obraz, uning xarakter mantiqiga muvofiq harakatlanishi va tragik obrazlarning shakllanishi haqida nazariy fikrlar bildiradi. U “tragik obrazlarni yozuvchining quli emas, balki o‘z xarakter mantiqiga ega shaxs”<sup>3</sup> deya ataydi.

Zamonaviy detektiv va sarguzasht romanlarda tragik obrazlar o‘quvchiga psixologik, axloqiy va falsafiy savollarni ko‘tarib beradi. Den Braunning asarlarida bunday obrazlar zamonaviy texnologiyalar, e‘tiqod va sirli tashkilotlar fonida shakllanadi. Xususan, “Raqamli qal’a” va “Davinci kodi” romanlarida tragik obrazlar o‘z ideallariga sadoqatli bo‘lsalar-da, aynan shu sadoqat ularni fojiali yakunga olib boradi.

Tankado (“Raqamli qal’a”) inson erkinligini ta’minlash maqsadida “Digital Fortress” nomli shifrlash algoritmini yaratadi. U axborot erkinligiga ishonadi, ammo uning ixtirosi global xavfsizlikka tahdid soladi. Bu ziddiyat uning fojiaiy obraz sifatida shakllanishiga sabab bo‘ladi. “Information is power. And like all power, there are those who want to keep it for themselves.”<sup>4</sup>

Tankado o‘zining ezgu niyatlari bilan NSA kabi kuchli tashkilotlarga qarshi chiqadi, ammo oxir-oqibat o‘zining ixtirosi insoniyat xavfsizligiga tahdid tug‘dirishi mumkinligini tushunmasdan halok bo‘ladi.

Silas — (Davinci kodi) diniy e‘tiqodi tufayli begunoh insonlarni o‘ldiradi, ammo bu harakatlarini poklanish deb hisoblaydi. Uning fojiaiyliigi — ishonch va manipulyatsiya orasidagi chegarani anglamasligidadir.

“He did not murder. He cleansed.”<sup>5</sup>

Asarlarni o‘qish va tragik obrazlarni tahlil qilish barobarida shuni anglash mumkinki, Den Braun tragik obrazlarida umumiy, o‘xshash jihatlar ko‘zga tashlanadi. Ya’ni birinchidan, ikki obrazdayam ezgu niyat mavjud edi;

<sup>2</sup> Ozod Sharafiddinov, “Ijodni anglash baxti”, Sharq nashriyoti, 2004. Toshkent.

<sup>3</sup> Dilmurod Quronov. “Adabiyot nazariyasi asoslari”. -T.: Akademnashr, 2018. -B.87

<sup>4</sup> Dan Brown, Digital Fortress, St. Martin’s Press. -P.33

<sup>5</sup> Dan Brown, The Da Vinci Code, Doubleday. -P.10



## Scientific Conference on Multidisciplinary Studies

Hosted online from Bursa, Turkey

Website: econfseries.com

11<sup>th</sup> June, 2025

Tankado axborot erkinligini ta'minlashni, insonlarga yordam berishni xohlaydi; Silas din yo'lida sadoqat bilan xizmat qilib, o'z gunohlaridan qutulmoq harakatida bo'ladi. Shuningdek qilayotgan ishni anglamaslik ikkala obrazda ham uchraydi, Tankado yaratgan algoritm erkinlik niqobi ostida global xavf tug'diradi; Silas diniy tashkilotga sadoqat bilan xizmat qilyapman deya begunoh odamlarni o'ldiradi. Ruhiy jihatdan ham Den Braun obrazlarida yaqinlik mavjud. Tahlil ostida olingan obrazlarning ikkalasiyam qat'iy sodiq, ammo qarama-qarshilik, ichki iztiroblardan azob chekishardi.

### Xulosa

Den Braun romanlaridagi tragik obrazlarning o'ziga xosligi shundaki, ular zamonaviy muammolar – axborot nazorati, diniy ekstremizm, axloqiy ziddiyatlar bilan bog'liq. Ensej Tankado va Silas o'z ideallariga sadoqatli bo'lsalar-da, aynan shu sadoqat ularni fojiga olib boradi. Braun bu orqali o'quvchini nafaqat syujet, balki falsafiy fikrlashga chorlaydi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Brown, D. Digital Fortress. St. Martin's Press, 1998.
2. Brown, D. The Da Vinci Code. Doubleday, 2003.
3. Quronov, D. Adabiyot nazariyasi asoslari. Toshkent: Akademnashr, 2018.
4. Sharafiddinov, O. Ijodni anglash baxti. Toshkent: G'afur G'ulom, 2004.